

Fuqaro aviatsiyasida ekspluatant sertifikatini
PASPORTI

1.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning nomi:	O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida ekspluatant sertifikatini
2.	Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar):	Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar tomondan fuqaro havo kemasidan foydalanish bilan bog‘liq fuqaro aviatsiyasidagi faoliyatni amalga oshirish
3.	Ariza beruvchilar toifasi:	Yuridik yoki jismoniy shaxslar
4.	Ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ:	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (“O‘zaviatsiya” agentligi)
5.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:	a) Ekspluatant sertifikatini olish uchun ariza. Arizada quyidagilar ko‘rsatiladi: 1. yuridik shaxsning to‘liq nomi yoki jismoniy shaxsning F.I.O. 2. Quyidagilarni belgilash: ekspluatant sertifikatini berish; ekspluatant sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish; ekspluatant sertifikatini qayta rasmiylashtirish; ekspluatant sertifikatining amal qilishini tiklash; ekspluatant sertifikatining dublikatini berish; ekspluatant sertifikatining amal qilishini to‘xtatish; ekspluatant sertifikatini bekor qilish. 3. Ariza beruvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar: yuridik shaxslar uchun: 1) Tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq nomi; 2) Joylashgan joyi (pochta manzili); 3) Telefon raqamlari; jismoniy shaxslar uchun: 1) Familiyasi, ismi, otasining ismi; 2) Fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari; 3) Turar joy manzili; 4) Telefon raqamlari. 4. Ilova (hujjatlar nomi, ularning raqamlari, imzolangan sana, varaqlar soni, taqdim qilish shakli); b) Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati. Yuridik shaxslar uchun: 1. Havo kemasini joylashgan manzil, taklif qilinadigan parvozlar va faoliyat turlari, foydalanish geografik zonalar (regionlari) haqida ma’lumotlar. 2. Ariza beruvchi tashkilotning tasdiqlangan tarkibiy sxemasi. 3. Havo kemasiga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar. 4. Mazkur Pasportning 9-pozitsiyasidagi talablar va shartlarning 5-bandida ko‘rsatilgan boshqaruv xodimlari bo‘yicha ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar lavozimlari,

familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning malakalari va fuqaro aviatsiyasida tegishli rahbarlik ishidagi tajribasi ko'rsatilgan ma'lumotlar.

5. Aviatsiya ekipajlari tarkibi va texnik-muhandis xodimlarning malakalari va ruxsatnomalari to'g'risida nomma-nom ma'lumotlar.

6. Foydalaniladigan havo kemalarining turi, modeli, seriyasi, tanish belgilari, parvozga yaroqlilik holati ko'rsatilgan ma'lumotlar.

7. Havo kemalari joylashgan aeroportda parvozlarni ta'minlash turlari uchun shartnomalar nusxalari.

8. Barcha turdagi majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta polislari nusxalari.

9. Parvozlarni amalga oshirishga doir qo'llanma, havo kemasi ekspluatantining texnik xizmat ko'rsatishni boshqarishga doir qo'llanmasi, havo kemasiga yer ustida xizmat ko'rsatishga doir qo'llanma, xavfli yuklarni tashish bo'yicha ta'lim va tartibotlarga doir qo'llanma, havo kemasi og'irligi va markazlanishini rostdlashga doir qo'llanma, ekipajning yer ustida va parvozda tayyorgarlik dasturi, ekspluatantning aviatsiya xavfsizligini ta'minlash dasturi.

10. Havo kemasidan foydalanishga doir qo'llanma (har bir turdagi havo kemasi uchun), aviatsiyada havo kemasidan foydalanishga doir qo'llanma (har bir turdagi havo kemasi uchun), texnik xizmat ko'rsatish dasturi (har bir turdagi havo kemasi uchun), minimal uskunalar ro'yxati (har bir turdagi havo kemasi uchun), asosiy minimal uskunalar ro'yxati (har bir turdagi havo kemasi uchun), konfiguratsiyadan og'ishlar ro'yxati (har bir turdagi havo kemasi uchun).

Jismoniy shaxslar uchun:

1. Havo kemasi joylashgan manzil, taklif qilinadigan parvozlar, parvozlarning geografik zonolari (regionlari) haqida ma'lumotlar.

2. Havo kemasiga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.

3. Ariza beruvchining havo kemasida parvozlarni bajarish uchun malakalari va ruxsatnomalari to'g'risida ma'lumotlar.

4. Havo kemalarining turi, modeli, seriyasi, tanish belgilari, parvozga yaroqlilik holati ko'rsatilgan ma'lumotlar.

5. Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkilot bilan tuzilgan shartnoma nusxalari.

6. Havo kemalari joylashgan aeroportda parvozlarni ta'minlash turlari uchun shartnomalar nusxalari.

7. Barcha turdagi majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta polislari nusxalari.

8. Parvozlarni amalga oshirishga doir qo'llanma, havo kemasining ekspluatatsiyasiga doir qo'llanma, havo kemasining uchish ekspluatatsiyasi bo'yicha qo'llanma, havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish dasturi, ekspluatantining aviatsiya xavfsizligini ta'minlash dasturi.

6.	Arizani ko‘rib chiqish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Ariza beruvchi	Yig‘im
		Jismoniy shaxslar uchun	Bazaviy hisoblash miqdorining 165,3 baravari
		Yuridik shaxslar uchun	Bazaviy hisoblash miqdorining 393,5 baravari
		Yig‘imlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko‘rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘iga; qolgan mablag‘larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag‘iga, 40 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.	
7.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun undiriladigan yig‘im:	Bazaviy hisoblash miqdorining 57,3 baravari. Yig‘im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko‘rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘iga; qolgan mablag‘larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag‘iga, 40 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.	
8.	Arizani ko‘rib chiqish muddati:	60 ish kuni	
9.	Ruxsat beruvchi talablar va shartlar:	Ekspluatant tomonidan faoliyatni amalga oshirishda ruxsat beruvchi talablar va shartlar quyidagilardan iborat: a) qonunchilik hujjatlariga majburiy rioya qilish; b) ariza beruvchi o‘zgargan (yuridik shaxs uchun — uning nomi yoki joylashgan manzili (pochta manzili) o‘zgargan, jismoniy shaxs uchun — uning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat joyi o‘zgargan) holatda qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng yetti ish kuni mobaynida “O‘zaviatsiya” agentligini xabardor qilish; v) havo kemasi ekspluatantining belgilangan ruxsat beruvchi talablar va quyida keltirilgan shartlarga muvofiqligi: yuridik shaxslar uchun:	

	1. Ekspluatant havo kemasiga (mulkka egalik huquqlarida yoki ekipajsiz ijara shartlarida), parvozlarni tashkil etish, amalga oshirish va ta'minlash uchun aviatsiya xodimlariga va ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lishi shart. Ekspluatantning asosiy faoliyat yuritish va havo kemasini joylashtirish manzili O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lishi shart. 2. Ekspluatantning havo kemasi belgilangan turlardagi va mintaqalardagi parvozlarni amalga oshirishi uchun tegishli ravishda jihozlangan bo'lishi, aviatsiya xodimlari esa zarur malakaga va tayyorgarlikka ega bo'lishlari shart. 3. Ekspluatant belgilangan turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlicha moliyaviy resurslar mavjudligini tasdiqlashi shart. 4. Ekspluatant quyidagilarga ega bo'lishi shart: - aviatsiya xizmati; - texnik xizmat; - ishlab chiqarish-dispatcherlik bo'linmasi yoki parvozlarni tashkiliy ta'minlash bo'yicha tegishli ravishda tayyorlangan xodim (dispatcher); - parvozlarning xavfsizligi bo'yicha inspeksiya yoki parvozlarning xavfsizligi bo'yicha ekspluatant rahbarining o'rinbosari (maslahatchisi); - aviatsiya xavfsizlik xizmati yoki aviatsiya xavfsizligi bo'yicha ekspluatant rahbarining o'rinbosari; - havoda tashishlar va/yoki aviatsiya ishlarini tashkil etish xizmati yoki havoda tashishlar va/yoki aviatsiya ishlarini tashkil etish uchun mas'ul tegishli ravishda tayyorlangan xodim; - tibbiy bo'linma yoki parvozlarning tibbiy ta'minotini tashkil etish uchun mas'ul shifokor; - parvozlarning qidiruv, avariya-qutqaruv ta'minot xizmati yoki parvozlarning avariya-qutqaruv ta'minoti uchun tegishli ravishda tayyorlangan mas'ul xodim; - aeronavigatsion ta'minot xizmati yoki aeronavigatsiya ta'minotini tashkil etish uchun tegishli ravishda tayyorlangan mas'ul xodim. 5. Ekspluatant quyidagilar uchun mas'ul boshqaruv xodimlariga ega bo'lishi shart: - havo kemasidan aviatsiyada foydalanish va aviatsiya ishlarini tashkil etish qoidalariga rioya etish (fuqaro aviatsiyasi uchuvchisining amaldagi guvohnomasi bilan); - havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish va uning qoidalariga rioya etish; - parvozlarni tashkil etish, rejalashtirish va amalga oshirishning operativ nazoratini ta'minlash; - havoda tashishlar va/yoki aviatsiya ishlari ta'minlanishini tashkil etish; - aviatsiya xavfsizligini ta'minlash; - parvozlarning xavfsizligini ta'minlash nazoratini tashkil etish. 6. Ekspluatant havo kemasining ekipajini tashkil etuvchi, ekspluatantning belgilangan parvozlarning dasturini bajarish
--	--

uchun yetarli miqdorda xodimlarga va havo kemasi ekspluatantining texnik xizmat ko'rsatishni boshqarishga doir qo'llanmasiga muvofiq havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish va bajarish uchun texnik-muhandis xodimlarga ega bo'lishi shart.

7. Aviatsiya tarkibi va ekipajning xizmat ko'rsatuvchi xodimlari, ekspluatantning texnik-muhandis xodimlari aviatsiya mutaxassisining kerakli malakaviy belgilar va ruxsatlar qayd etilgan amaldagi guvohnomalari bilan tasdiqlangan tegishli maxsus tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lishi shart.

8. Ekspluatant normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, parvozlarning xavfsizligini va aviatsiya xavfsizligini ta'minlashga doir axborotni olish, o'z aviatsiya xodimlariga yetkazish hamda ularning ijrosini nazorat qilish tizimiga ega bo'lishi shart.

9. Ekspluatant parvozlarning xavfsizligini boshqarish tizimiga ega bo'lishi kerak. Ekspluatant parvozlarning xavfsizligini boshqarish tizimi doirasida rahbarlik va o'z aviatsiya xodimlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan parvozlarning xavfsizligiga doir hujjatlar tizimiga ega bo'lishi shart.

Maksimal sertifikatlangan 27 000 kg dan ko'prog'irlikdagi havo kemasi ekspluatanti parvozlarning xavfsizligini boshqarish tizimining tarkibiy qismi sifatida parvoz ma'lumotlarini tahlil qilish dasturini ishlab chiqishi va bajarishi shart.

10. Ekspluatant havoda tashishlar va/yoki aviatsiya ishlarini operativ boshqarish uchun har bir havo kemasi bilan aloqa mavjud bo'lishini ta'minlashi kerak. Havo kemasi bilan aloqa ekspluatant tomonidan mustaqil ravishda yoki tegishli ishlarni bajarish huquqiga ega tashkilot bilan shartnoma asosida ta'minlanishi mumkin.

11. Ekspluatant xavfli yuklarni tashish uchun quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

xavfli yuklarni tashish qoidalari bo'yicha malaka darajasini tasdiqlovchi sertifikatga, shuningdek, ekspluatant nomidan aviatsiyada xavfli yuklarni tashish uchun ruxsat berish (ruxsat berishni rad etish) hamda xavfli yuklarning sinfiga (toifasiga) qarab ularni tashish shartlari to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega mas'ul mutaxassis;

aviatsiya tarkibi va ekipajning xizmat ko'rsatuvchi xodimlarida xavfli yuklarni tashish qoidalari bo'yicha malaka darajasini tasdiqlovchi sertifikat;

"O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlangan xavfli yuklarni tashish bo'yicha ta'lim va tartibotlarga doir qo'llanma.

12. Ekspluatant o'zi foydalanayotgan har bir havo kemasi:

parvozgacha yaroqli holatda saqlanishini;

rejalashtiriladigan parvoz uchun kerakli ishga yaroqli foydalanish va avariya uskunalariga ega bo'lishini;

fuqaro havo kemasi parvozga yaroqliligining amaldagi sertifikatiga ega bo'lishini ta'minlashi shart.

13. Ekspluatant quyidagi axborot hisobga olinishi va saqlanishini ta'minlashi shart:

havo kemasi hamda cheklangan resursli va xizmat muddatli barcha agregatlaridan umumiy foydalanish vaqti (tegishli ravishda soatlar, kalendar vaqti va sikllar);

barcha majburiy axborotning muvofiqligi, parvozga yaroqlilikni saqlash to'g'risidagi joriy ma'lumotlar;

modifikatsiyalar va ta'mirlashlar to'g'risida tegishli batafsil ma'lumotlar;

havo kemasi yoki uning agregatlari so'nggi kapital ta'mirlashdan keyin ulardan foydalanish vaqti (tegishli ravishda soatlar, kalendar vaqti va sikllar) to'g'risida ma'lumotlar;

havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish dasturining bajarilishi to'g'risida joriy ma'lumotlar;

texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi dalolatnomani imzolashda barcha talablar bajarilganligini tasdiqlovchi texnik xizmat ko'rsatish to'g'risida batafsil ma'lumotlar.

Mazkur bandning yettinchi xatboshisidan tashqari axborot tegishli agregat foydalanishdan butkul olib tashlangandan so'ng 90 kundan kam bo'lmagan muddatda saqlanishi kerak. Ushbu bandning yettinchi xatboshisida ko'rsatilgan axborot texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangandan so'ng eng kamida bir yil saqlanishi shart.

Ekspluatant o'zgargan holatda, mazkur bandda qayd etilgan axborot yangi ekspluatantga taqdim qilinishi shart.

14. Maksimal sertifikatlangan og'irligi 5 700 kg dan ko'proq bo'lgan havo kemasi ekspluatanti texnik xizmat ko'rsatish va foydalanish tajribasini nazorat qilishi, umumlashtirishi va baholashi hamda havo kemasini ishlab chiquvchiga havo kemasining parvozga yaroqliligini ta'minlashga salbiy ta'sirni yuzaga keltiradigan yoki yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan ishdan chiqishlar, nosozliklar, nuqsonlar va boshqa hodisalar to'g'risidagi axborotni taqdim qilishi shart. Ekspluatant havo kemasini ishlab chiqaruvchidan parvozga yaroqliligini ta'minlashga doir barcha zarur ma'lumotlar va tavsiyalarni olib, ularni atroflicha tahlil qiladi va tegishli harakatlarni "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiradi.

15. Ekspluatantning havo kemasini barcha modifikatsiyalari va ta'mirlash ishlari havo kemasining parvozga yaroqliligiga doir talablarga javob berishi shart.

16. Ekspluatant havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatilgan va texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi tegishli dalolatnoma "O'zaviatsiya" agentligi tasdiqlagan tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan holatda, havo kemasida parvozlarni amalga oshiradi.

Agar havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish shartnomaga asosan havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish tashkiloti tomonidan bajarilsa, ushbu shartnomaning texnik sohalari "O'zaviatsiya" agentligi bilan o'zaro muvofiqlashtirilishi shart.

17. Havo kemasi parvozga yaroqlilik me'yorlariga asosan va aviatsiyada havo kemasidan foydalanishga doir qo'llanmadagi foydalanish cheklanishlari doirasida ishlatilishi shart.

18. Havo kemasi ekipajning uchuvchilar tarkibiga havo kemasi parvozining trayektoriyasini nazorat qilish, qoidalar bilan talab qilinadigan har qanday harakatlarni bajarish, kutilgan foydalanish sharoitlarida ushbu havo kemasiga tegishli foydalanish cheklovlariga rioya etish imkonini beradigan asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

19. Ekspluatant havo kemasining yuklanishini parvozlarni amalga oshirishga doir qo'llanmaga va ekspluatantning tegishli foydalanish hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshiradi.

20. Ekspluatant aviatsiya xodimlarining o'z funksional vazifalari doirasida aviatsiya xavfsizligi chora-tadbirlari bilan tanishib chiqishlarini ta'minlaydi va ekspluatantning aviatsiya xavfsizligini ta'minlash dasturi xodimlar tomonidan bajarilishini tashkil etadi.

21. Ekspluatant ekipajining aviatsiya tarkibi xorijiy mamlakatlarning o'z vazifalariga tegishli va uchib o'tiladigan hududlarga, foydalaniladigan aerodromlarga va tegishli aeronavigatsion vositalarga (xalqaro parvozlarni bajarish uchun) qo'llaniladigan qonunlari, qoidalari va tartibotlari bilan tanishib chiqishi shart.

22. Ekspluatant har bir foydalaniladigan havo kemasi ekipajining uchuvchilar tarkibini havo kemasidan foydalanishga doir qo'llanma va aviatsiyada havo kemasidan foydalanishga doir qo'llanma bilan ta'minlashi shart.

23. Ekspluatant ekipajining uchuvchilar tarkibi havo kemasi bortida ularning havo kemasi uchib o'tadigan hududda qidiruv-qutqaruv xizmatlariga tegishli barcha zarur axborotga ega bo'lishi shart.

24. Ekspluatant ekipajining uchuvchilar tarkibi radiotelefon aloqa yuritishda ishlatiladigan ingliz tilida so'zlashishi va uni tegishli darajada tushunishi shart (xalqaro parvozlarni bajarish uchun).

25. Ekspluatant ekipajining uchuvchilar tarkibi va xizmat ko'rsatuvchi tarkibi o'zining muayyan vazifalari va javobgarliklari yuzasidan instruktajdan o'tishlari shart.

26. Ekspluatant tashkiliy tuzilmani, boshqaruv va nazorat metodikasini o'z ichiga oladigan yer ustida xizmat ko'rsatish tizimiga ega bo'lishi shart.

27. Ekspluatant O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq majburiy turdagi sug'urtalanishlarni ta'minlaydi.

28. Ekspluatant quyidagilarga ega bo'lishi va ularni bajarishi shart:

“O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan tasdiqlangan parvozlarni amalga oshirishga doir qo‘llanma, havo kemasi ekspluatantining texnik xizmat ko‘rsatishni boshqarishga doir qo‘llanmasi, parvozlarning xavfsizligini boshqarish tizimiga doir qo‘llanma, havo kemasidan foydalanishga doir qo‘llanma (har bir turdagi havo kemasi uchun), havo kemasi og‘irligi va markazlanishini rostlashga doir qo‘llanma, havo kemasiga yer ustida xizmat ko‘rsatishga doir qo‘llanma;

“O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan tasdiqlangan aviatsiyada havo kemasidan foydalanishga doir qo‘llanma (har bir turdagi havo kemasi uchun), texnik xizmat ko‘rsatish dasturi (har bir turdagi havo kemasi uchun), ekipaj a‘zolarining yer ustida va parvozdagi tayyorgarlik dasturi, minimal uskunalar ro‘yxati (har bir turdagi havo kemasi uchun), aviatsiya xavfsizligini ta‘minlash dasturi.

Hujjatlar inson omili sohalari hisobga olingan holda, ishlab chiqiladi, ularning tuzilishi va mazmuni esa standartlar talablariga va Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) tomonidan tavsiya etiladigan amaliyotga muvofiq bo‘lishi shart.

29. Agar ekspluatant boshqa davlatda ro‘yxatdan o‘tkazilgan havo kemasidan foydalansa, u havo kemasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan davlatga tegishli standartlar talablarini va Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) tomonidan tavsiya etiladigan amaliyotni bajarishi shart.

30. Ekspluatant o‘z faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bajarishi shart;

jismoniy shaxslar uchun:

1. Ekspluatant havo kemasiga mulkka egalik huquqlarida yoki ekipajsiz ijara shartlarida ega bo‘lishi shart. Ekspluatantning asosiy faoliyat yuritish va havo kemasini joylashtirish manzili O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lishi shart.

2. Ekspluatant fuqaro aviatsiyasi uchuvchisining kerakli malaka belgilari va ruxsatlar qayd etilgan amaldagi guvohnomalari bilan tasdiqlangan tegishli maxsus tayyorgarlikka va malakaga ega bo‘lishi shart.

3. Yuqoridagi talab va shartlarning 12, 15, 22, 23, 27 va 30-bandlari talablariga javob berishi va ularni bajarishi shart.

4. Ekspluatant “O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan tasdiqlangan parvozlarni amalga oshirishga doir qo‘llanma, havo kemasidan foydalanishga doir qo‘llanma, aviatsiyada havo kemasidan foydalanishga doir qo‘llanma, havo kemasiga texnik xizmat ko‘rsatish dasturi va aviatsiya xavfsizligini ta‘minlash dasturiga ega bo‘lishi va ularni bajarishi shart.

10.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishda kelishiladigan organlar:	Mavjud emas
11.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati:	3 yil
12.	Izoh:	1. Ekspluatant sertifikatini "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan havo kemasidan foydalanish bilan bog'liq fuqaro aviatsiyasida faoliyatni amalga oshirish uchun beriladi. Ekspluatant sertifikatini jismoniy shaxsga faqat uning shaxsiy ehtiyojlari uchun beriladi. 2. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlarni o'tkazish uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) talabgor (ariza beruvchi) tomonidan amalga oshiriladi. 3. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq "O'zaviatsiya" agentligi talabgorga ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berganlik uchun yig'im to'langan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay, ekspluatant sertifikatini asl nusxasini beradi. 4. Ekspluatant sertifikatini "O'zaviatsiya" agentligi direktori yoki "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan vakolat berilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va "O'zaviatsiya" agentligining muhri bilan tasdiqlanadi. 5. Xalqaro parvozlarni amalga oshiruvchi fuqaro havo kemasi uchun ekspluatant sertifikatini matni ingliz tilida bo'lishi lozim. 6. Havo kemasining hujjati hisoblangan ekspluatant sertifikatini nusxasi "O'zaviatsiya" agentligining mas'ul mutaxassisi imzosi bilan tasdiqlanadi. 7. Ekspluatant sertifikatiga muvofiq rasmiylashtirilgan foydalanish xususiyatlari ilova qilinadi. Spetsifikatsiyalar tavsiflarning har bir varag'i "O'zaviatsiya" agentligi direktori yoki "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan vakolat berilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va "O'zaviatsiya" agentligining muhri bilan tasdiqlanadi. 8. Ekspluatant sertifikatini ikki yoki undan ko'p yuridik (jismoniy) shaxslarga berilishi mumkin emas va boshqa shaxsga berilmaydi. 9. Ekspluatant faqat amaldagi ekspluatant sertifikatini mavjud bo'lgan holatda va foydalanish xususiyatlaridagi shartlar hamda cheklanishlarga muvofiq havo kemasidan fuqaro aviatsiyasida faoliyatni amalga oshirish maqsadlarida foydalanishi mumkin. 10. "O'zaviatsiya" agentligi belgilangan tartibda ekspluatant sertifikatini berish uchun kerakli hujjatlarni va

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlat organlaridagi ma'lumotlarni axborot hamkorligi tizimi vositasida, shu jumladan, elektron hujjat shaklida oladi.

11. Eksploatant faoliyatini nazorat qilish eksploatant sertifikatini berish uchun belgilangan eksploatantning ruxsat beruvchi talablar va shartlarga muvofiqligini baholash maqsadida inspeksiya tekshiruvlarini o'tkazish shaklida amalga oshiriladi.

Inspeksiya tekshiruvi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Inspeksiya tekshiruvining natijalari qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

12. Eksploatant sertifikatini berish yoki uning berilishini rad qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun "O'zaviatsiya" agentligi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar baholanishini va ariza beruvchining sertifikatlash tekshiruvini amalga oshiradi.

13. Hujjatlarning baholanishida ularning butligi hamda eksploatantga belgilangan faoliyatga doir ruxsat beruvchi talablar va shartlarga muvofiqligi tekshiriladi.

14. Sertifikatlash tekshiruvi ariza beruvchining havo kemasi joylashgan manzilda ruxsat beruvchi talablar va shartlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

15. Sertifikatlash tekshiruvi "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan tayinlangan komissiya tomonidan o'tkaziladi, ushbu buyruqda komissiya tarkibi, dasturi va tekshiruvni o'tkazish muddatlari ko'rsatiladi.

16. Hujjatlar va sertifikatsiyaviy tekshiruv baholanishi natijalariga asosan "O'zaviatsiya" agentligi ariza beruvchiga eksploatant sertifikatini beradi (yuboradi) yoki uni eksploatant sertifikatini berish rad etilganligi haqida tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmagan holda yozma shaklda xabardor qiladi.

17. Eksploatant sertifikatining amal qilishini to'xtatish uchun asos hisoblangan bir martalik qo'pol qoida buzilishiga quyidagi holatlar tegishlidir:

havo kemasidan, dvigatellar yoki ularning agregatlaridan belgilangan resurslar va xizmat muddatlaridan yuqori foydalanish;

nosoz havo kemasida parvozlarni amalga oshirish;

maxsus tayyorgarlikka va/yoki tegishli amaldagi aviatsiya mutaxassisi guvohnomasiga ega bo'lmagan shaxslarga parvozlarni amalga oshirish yoki aviatsiya texnikasiga xizmat ko'rsatish uchun ruxsat berish;

uchuvchi ekipaj tarkibi a'zolari tomonidan belgilangan parvoz ish vaqti va dam olish vaqti me'yorlarining buzilishi;

havo kemasini tashkil etish, ta'minlash, undan foydalanish va parvozlarni amalga oshirish qoidalarining aviatsiya hodisasiga olib kelgan buzilishi;

uchuvchi ekipaj tarkibi a'zolarini tayyorlash, ta'minlash va malakasini oshirishga doir belgilangan majburiy talablarning buzilishi;

	fuqaro aviatsiyasida tekshirilishi lozim bo'lgan aviatsiya hodisalari va noxush voqealarni yashirish; belgilangan tartibotlar buzilgan holda, havo kemasining tuzilishiga parvozlarning xavfsizligiga ta'sir etuvchi o'zgartishlarni kiritish; aviatsiya xavfsizligi yuzasidan parvozdan oldingi tekshiruvdan o'tkazilmagan yo'lovchilarni, qo'ldagi yuklarni, bagajni, yuklarni, pochtani, bort zaxiralarini tashish; yo'lovchilarni, bagajni yoki yuklarni tashish bo'yicha foydalanish cheklovlari buzilishi, havo kemasining yuk ortish yoki yo'lovchilar kabinalarining me'yordan yuqori yuklanishi. 18. Ekspluatantlar inspeksiya tekshiruvlari quyida belgilanganidan kam bo'lmagan muddatlarda amalga oshiriladi: perrondagi inspeksiya — uch oyda bir marta; marshrutdagi (parvozdagi) inspeksiya — uch oyda bir marta; asosiy obyektlar inspeksiyasi — yiliga bir marta. 19. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlarni o'tkazish uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha talabgor (ariza beruvchi) tomonidan yozma shartnomaga ko'ra qoplanadi.
--	---